

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON – QIRG‘IZISTON ALOQALARI

Komolov Inoyatillo Shaxobiddin o‘g‘li

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti 302-guruh talabasi)

Abdullayev Begzodbek Xusniddin o‘g‘li

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o‘qituvchisi)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonning mustaqillik yillarida Qirg‘iziston bilan diplomatik aloqalarning o‘rnatilishi, to hozirgi kungacha ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy uchrashuvlar, shartnoma va bitimlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: "Abadiy do‘stlik to‘g‘risida", madaniyat, sog‘liqni saqlash, valyuta siyosati, tovar aylanmasi, Shavkat Mirziyoyev, Almazbek Atambayev, investisiya jamg‘armasi, delegatsiyalar, «yutmagan va yutqazmagan».

Abstract: This article describes the establishment of diplomatic relations with Kyrgyzstan in the years of independence of Uzbekistan, political meetings, contracts and agreements between the two countries until now.

Key words: "About eternal friendship", culture, healthcare, currency policy, trade, Shavkat Mirziyoyev, Almazbek Atambayev, investment fund, delegations, "not winning and not losing".

O‘zbekistonning Qirg‘iziston bilan ikki tomonlama hamkorligi O‘zbekiston Respublikasi bilan Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam haqida shartnoma asosida yo‘lga qo‘yildi va rivojlantirilmoqda. Bu shartnoma Toshkentda 1992-yil 16-fevralda Qirg‘iziston Prezidenti Askar Akayevning O‘zbekistonga rasmiy davlat tashrifi paytida imzolangan edi. 1992-yil iyuldan [Toshkentda](#) Qirg‘iziston, elchixonasi, 1998-yildan [Bishkekda](#) O‘zbekiston elchixonasi faoliyat yuritmoqda Islom Karimovning 1993- yil Qirg‘izistonga qilgan rasmiy davlat tashrifi paytida O‘sh shahrida O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida 1994–2000-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to‘g‘risida Bayonot imzolandi. Bu hujjat ikkala respublikada ishlab chiqilgan milliy dasturlarni muvofiqlashtirishga, xomashyo va ishchi kuchidan, ilmiy salohiyatdan unumli foydalanishga qaratilgan edi. 1994-yil yanvarda O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov Qirg‘izistonda bo‘ldi. Rasmiy tashrif yakunida ikki davlat Prezidentlari tovarlar, xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchlarining erkin yurishini, o‘zaro kelishilgan kredit hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, bojxona va valyuta siyosatini belgilovchi shartnomani imzoladilar.

1996-yil 24-dekabrda ikki davlat o‘rtasida imzolangan "Abadiy do‘stlik to‘g‘risida"gi shartnoma davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning shartnomaviy-

huquqiy asosi hisoblanadi. Davlatlar o'rtasida gumanitar sohadagi hamkorlik mana shu shartnoma, 1994-yil 16-yanvarda imzolangan Madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, ta'lim, turizm va sport bo'yicha hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi hukumatlararo bitim, 1996-yil 24-dekabrda imzolangan Madaniy hamkorlik to'g'risidagi muassasalararo bitimga muvofiq amalga oshiriladi. 2005-yilgacha ikki davlat o'rtasida ikki tomon uchun ahamiyatli bo'lgan 181 hujjat imzolangan. 2004-yil O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston o'rtasidagi tovar aylanmasi 68,1 mln. AQSH dollarini, jumladan, eksport 43,6 mln. AQSH dollarini, import 24,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

2010-yil iyulda Qirg'izistonda obro'-e'tiborini yo'qotgan Prezident hokimiyatining ag'darilishi, ekstermistik kuchlar tomonidan uyushtirilgan millatlararo qonli voqealar sharoitida O'zbekiston 100 mingdan ortiq qochqinlar, bolalar, xotin-qizlar, qariyalarni O'zbekiston hududiga qabul qildi, joylashtirdi va barcha zarur narsalar bilan ta'min-ladi. Shunday vaziyatda mamlakatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalar susaydi. 2017-yil O'zbekiston va Qirg'iziston munosabatlarida yangi sahifa ochdi. Shu yil sentabr oyida Qirg'iziston Prezidenti Almazbek Atambayev taklifiga binoan Prezident Shavkat Mirziyoyev Bishkekda bo'ldi. O'zbekiston va Qirg'iziston prezidentlari o'z ichiga 85 foiz masofani qamrab olgan chegara to'g'risidagi bitimni imzolashdi. Shu munosabat bilan, aholining o'tibqaytishi uchun ikki davlat o'rtasidagi 7 yil davomida yopib qo'yilgan chegara postlar ochildi. 2017-yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qirg'iziston Respublikasining yangi saylangan Prezidenti Sooranbay Jeenbekov rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Shuningdek, davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanishida 2018-yilda tuzilgan Chegara hududlari rahbarlari kengashi va uning doirasida olib borilayotgan investitsiya, turizm va savdo sohasida hamkorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni alohida ta'kidlash lozim. Shu bilan birga hududlar o'rtasidagi munosabatlarni yana-da jadallashtirish maqsadida Toshkent va Bishkek shaharlari, Andijon va O'sh, Namangan va Jalol-Obod, Farg'ona va Botken viloyatlari o'rtasida o'zaro savdo-iqtisodiy hamda madaniy gumanitar sohalarda hamkorlik qilish bo'yicha shartnomalar imzolangan.

Bundan tashqari 2018-yilda O'zbekistonda buyuk qirg'iz yozuvchisi Ch.Aytmatovning 90 yilligi keng nishonlanib, o'zbek teatrlarida adib ijodiga bag'ishlangan spektakllar bo'lib o'tdi. O'zbek-qirg'iz kinoijodkorlari Ch.Aytmatovning "Sarviquomat dilbarim" asari asosida qo'shma film suratga olishdi. Toshkentda esa Ch.Aytmatov nomli ko'cha ochilib, uning barelyefi o'rnatildi.

2018-yil dekabrda esa Qirg'iziston milliy universitetida O'zbekiston qaxramoni va xalq yozuvchisi E.Vohidov tavalludiga bag'ishlangan adabiy kecha tashkil etildi.

2021-yil 26-mart kuni Toshkentda O'zbekiston va Qirg'iziston delegatsiyalari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv natijalarini Qirg'iziston hukumati delegatsiyasining rahbari Qamchibek Tashiyev ma'lum qildi. Milliy xavfsizlik davlat qo'mitasi raisi Qamchibek Tashiyevning ta'kidlashicha, qirg'iz-o'zbek chegaralarida bundan so'ng bahsli hududlar bo'lmaydi. Chegara masalalarini hal qilishda tomonlarning hech biri «yutmagan va yutqazmagan». tomonlar loyiha chizig'ining Kampir-Obod (Andijon) suv ombori hududida 900 gorizont ostidan 312-raqamli chegara nuqtasidan 312/3-raqamli chegara nuqtasigacha o'tishi to'g'risida kelishib olgan. Kelishuv natijalariga ko'ra, ayrim shartlar bajarilsa, to'g'on O'zbekiston hududida qolishi belgilangan. Demarkasiya jarayonida O'zbekiston Andijon viloyatining O'sh viloyati Uzgen tumani va Jalol-Obod viloyatining So'zak tumanlari bilan chegaradosh hududdagi 304- va 312-raqamli chegara nuqtalari oralig'idagi 1000 gektar yerni tovon sifatida Qirg'izistonga topshiradi. Shu munosabat bilan tomonlar O'zbekiston va Qirg'iziston suv xo'jaligi tashkilotlariga Kampir-Obod suv omborining suv resurslaridan birgalikda foydalanish va boshqarish bo'yicha hukumatlararo kelishuv loyihasini ishlab chiqish topshirig'ini bergan. Shuningdek, tomonlar Shahrixonsoy kanalining hududlarini (chap tomoni), 312 va 312/3 chegara nuqtalari hududidagi Andijon suv ombori to'g'onini, kanaldan to'g'on o'rtasigacha, O'zbekistonga 50 gektar yerni qoldirib, xatlovdan o'tkazishga kelishib olgan.

Bundan tashqari ushbu tashrif davomida qirg'iz xalqiga o'zbek xalqi nomidan 10 dan ortiq tez yordam mashinalari topshirildi. Ikki davlat rahbarlari va delegatsiyalari ishtirokidagi muzokarlarda kapitali 200 million AQSH dollari bo'lgan O'zbekiston–Qirg'iziston investisiya jamg'armasi tashkil etilishi belgilangan hamda ikki mamlakat hukumatlariga uning faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriqlar berilgan. O'zbekiston–Qirg'iziston sherikligining deyarli barcha yo'nalishlarini qamrab olgan 22 ta hujjat imzolandi.

Hozirda O'zbekistonda qirg'iz kapitali ishtirokida **187** ta korxonalar faoliyat yuritmoqda, ulardan **98** tasi qo'shma korxonalar, **89** tasi chet el kapitali asosida ish yuritadi. Vaholangki, 2016-yilda bu kabi korxonalar soni jami 49 tani tashkil etar edi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda jadallik bilan olib borilayotgan siyosiy muloqotlar ikki taraflama hamkorlikning barcha sohalarida o'z aksini topib, **O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida madaniy va gumanitar aloqalarning rivojlanishiga olib keldi.**

Shak-shubhasiz, hozirgi kundagi O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi munosabatlar tarixan misli ko'rilmagan yuqori darajada rivojlanmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi yaxshi qo'shnihilik va do'stona, strategik sheriklik munosabatlarini nafaqat saqlab qolish balki uni yana-da rivojlantirish va mustahkamlash o'ta muhim. Hech mubolag'asiz, O'zbekiston va Qirg'iziston o'zaro sa'y-harakatlar va mushtarak

intilishlar asosida o'zbek va qirg'iz xalqlarining farovonligi yo'lida keng qamrovli hamkorlikni yana-da rivojlantirishga va takomillashirishga erisha oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Narzullo Jo'rayev, Akbar Zamonov, „11-sinf O'zbekiston tarixi(mustaqillik davri)”, G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, Toshkent-2018, 115-bet.
2. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston Tarixi. –T.: Akademnashr 2019. – B550. <http://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/997>
3. Jo'rayev N., Fayzullayev T. Mustaqil O'zbekiston Tarixi(Uchinchi kitob). – T.:Matbaa,2000. –608 bet
4. O'zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi qonuni. // Xo'jalik va huquq, 2000
5. Abduqodirova N. Yangi O'zbekiston –Yangi qo'shnihilik: Markaziy Osiyo davlatlari bilan qo'shnihilik//SCIENTIFIC PROGRESS/VOLUME 2/ISSUE 5/2021